

**O'QUVCHILARNING KASB TANLASHDA PSIXOFIZOLOGIK XUSUSIYATLARI,  
LAYOQAT VA QOBILYATLARI**

**Toshmanova Maftuna Aktamovna**

*16-maktabda amolyotchi psixolog*

**Annotatsiya.** *Maqolada kasb ta'limi va kadrlar tayyorlashda kasbiy psixologiyaning o'рни, ahamiyati, vazifalari tahlil qilingan, ta'lim tizimidaolib borilayotgan islohotlar jarayonida psixologiyaning kasb tanlashdagi ahamiyati ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kasb, islohotlar, psixologiya, kadrlar tayyorlash, kasbiy psixologiya, ta'lim jarayonlari va kasb psixologiyasi.*

**KIRISH**

Ma'naviy komil insonlar ta'lim-tarbiya olish hamda bu ta'lim va tarbiyani yanada boyitishlari, amaliyotga tatbiq eta olishlari bilan ajralib turadilar. Ta'lim- tarbiya insonda ma'lum bir kasb-hunarga qiziqish, shu kasb orqali o'z hayotini tuzish, kelajagi uchun zarur bo'lgan manbalarni vujudga keltirishni shakllantirib boradi. Insoniyat paydo bo'libdiki, u har doim o'zini boqish, ehtiyojlarini va manfaatlariniqondirishga harakat qilgan va hozirda ham shuyo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo, oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiri shdan boshlagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritirib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va

uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajadajismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

#### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Insoniyat hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirish davomida yangi kasblar ham paydo bo'lib bormoqda. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming), O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Shuni aytish kerakki, kasb-hunar va uning egalari azaldan xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelingan. O'zbekistonda hozirda bilimdon, o'z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o'z kasbiga ijodiy yondashuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko'proq talab qilinmoqda. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb va katta e'tibor berilayotgan masalalardan biri bo'lib turibdi.

#### **TADQIQOT NATIJALARI**

Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarning kasb-hunar egasi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Yoshlar bu jamiyatning kelajagi, ularni o'zlari qiziqqan kasblarni egallashi, hayotda o'z o'rinlarini topa olishlari zaruriy jarayon hisoblanadi.

Kasb-hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Misol uchun, Kaykovus o'zining «Qobusnoma» asarida shunday yozadi: «Bas, agar aqling bo'lsa hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql - boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas».

Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazish uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'rni va ahamiyati judakatta.

Izlanuvchi yoshlar kasb-hunar va uni egallash hayotlari, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib, kasb - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy me'yorlarga javobberadigan, insonning kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab jarayon, deb belgilashimiz mumkin. Kasb - bu insonning ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish beruvchi fan hisoblanadi.

Har bir kasbning o'ziga xos tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib, shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o'zining ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi.

1-bosqich 2-bosqich

Kasb Kasbning tanlashga ta'rifi va o'quvchini tabiati aqlan va haqida ruhan bilim tayyorlash berish.

3-bosqich.

Qiziqish tushunchasini ochib berish va o' quvchining qiziqishini aniqlash.

4-bosqich

Qobiliyat tushunchasini ochib berish va o' quvchidagi qobiliyatni aniqlash

5-bosqich 6-bosqich

Kasb Ilovalar asosida tanlovini kasb tanlovini amalga tajriba oshirish va tariqasida algoritmini amalga oshirish ochib berish

Kasb tanlash ketma-ketligi.

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo'ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o'zining «Kasb qanday tanlanadi» kitobida ko'rsatib berdi.

Bu rasmdan ko'rinib turibdiki, yoshlar kasb tanlashlarida ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tadilar. Xilma-xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasb insonni har doim o'z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga undaydi. Anvar Jalolov insonda kasb tanlash jarayonini belgilaydi.

#### MUHOKAMA

Insonda ma'lum kasb, uni egallashga havas, mayl, orzu, ishtiyoq, hafsala bo'lmasa, u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o'z kelajagini to'g'ri anglash, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo'ladi. Bular bolada ma'lum bir maqsadning shakllanishi va bu yo'lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o'z maqsadi sari intiladi va orzu- havaslariga erishadi. Bunda bolada paydo bo'luvchi havas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so'zlarni tinglash va ularning mahoratiga qoyil qolish, bu insonlarning bilimdonligi, qo'llaridan ko'plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonlarga o'xshashga havasni uyg'otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va hafsala paydo bo'ladi. Bu jarayonlar bolada uyg'onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'lib, uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishning hissiyotlari, irodalari bilan bog'liq jarayondir.

Katta bo'lib borayotgan bolada havas hissi paydo bo'ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohishi, istagi va orzusi bo'lib ko'zga tashlanadi. Bu yo'lda bola o'ziga biror kasbni tilab, shu kasbni egallashga bo'lgan

intilishi sodir bo'ladi. Agarda bola o'z tilaklarini hafসা bilan amalga oshirmasa, harakat qilmasa, bu armon va orzu bo'lib qoladi.

Yoshlarni kasb tanlashlari yo'lidagi bunday jarayonlarni o'rgangan psixolog olim inson ning anglash darajasiga ko'ra kasb tanlashdagi hislariga quyidagicha ta'rif bergan.

Yaxshi kasb tanlash uchun kerak bo'lgan ji-hatlar 3-rasmdagi kabi ko'rsatilishi mumkin.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasbtanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok, xohishning mavjud bo'lishi;
- o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olgan bo'lishi;
- kelajagi haqidagi tasavvurlarning bo'lishi.

#### MUHOKAMA

E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan. 15 Mehnat ob'ktiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson - tabiat (T). Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, vetenar, mikrobiolog.

2. Inson - texnika (T). Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlari bilan ishlashadi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3. Inson - inson (I) bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o'qituvchi va boshqalar.

4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan, dasturchi, chizmachil - kartagraf, matematik, tilshunos, nashriyot muqarriri.

5. Inson - badiiy obraz (B). hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarini sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va boshqalar. Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko'ra 3 ta sinfga bo'linadi.

1. Gnostik kasblar (G) (qadimgi yunonchadan "gnosis" bilim);
2. O'zgartiruvchi kasblar;
3. Qdiruvli kasblar;

Asosiy ish qurollariga ko'ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin.

1. Qo'l mehnati kasblari;
2. Mashina qo'l mehnati;
3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo'llanishi bilan bog'liq kasblar;
4. Funksional ish quroli bilan bog'liq kasblar.

Mehnat sharoitlariga ko'ra, YE.A.Klimov kasblarni 4 guruhga bo'ladi. Maishiy mikroiqlimga xonakiga yaqin ish.(B) har xil ob-havo sharoitida ochiq havoda bo'lish bilan bog'liq kasblar agronom, payvandchi, avtonazorat inspektori. Odatiy bo'lmagan

sharoitlarda balandlikda, suv tagida, yer tagida baland past darajalarda ishlash: havvos, o't o'chiruvchi va hokazo. Insonlar sog'ligi, hayoti uchun yuqori mas'uliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar boqchasi tarbiyachisi, o'qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo'llagan holda, kasblar dunyosi "xaritasini" va ma'lum kasbning na'munaviy formulasini tuzish mumkin. Bu formula real kasbga nisbatan ham orzudagi kasbga nisbatan ham, qo'llanishi mumkin.

1. Mening kasbim
2. Kasblar guruhlari
3. Kasblar bo'limlari
4. Kasblar sinflari

5. Kasblar turlarini sinflash Bu kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. Bu tasniflashni o'rganib chiqqan V.E.Govrilov ijobiy tomonlari bilan birga kamchiliklarini ham ko'rsatib berdi. Masalan, bir guruhdagi kasblar ishchiga qarama -qarshi talablarni oldiga qo'yuvchi komponentlarni o'z ichiga oladi, bu esa kasbga layoqatlilik belgilarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tasniflashning yana bir kamchiligi shundaki, kasblar olami nihoyatda o'zgaruvchan, shunga ko'ra kasblarning mehnat mazmuni ham o'zgaruvchan xususiyatga ega. Bu esa kasblarni tizimlashga nisbatan noaniqlikni keltirib chiqaradi va kasbiy tanlovni kasbiy maslahat jarayoniga kirishni qiyinlashtiradi. Ma'lumki, kasbiy ta'limning barcha kasblar bo'yicha olib borib bo'lmaydi va kasbiy faoliyat turlarining murakkablik darajasi, sharoitlari, vositalari, mazmuni juda farqlanadi. O'quv kasblarning ma'lum belgilari, sifatlarini tasniflash va malaka darajalarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan tanlov lozim. O'quv kasblar ro'yxati buning natijasi bo'lishi kerak va shu asosda mutaxassislar tayyorlash shakllari aniqlanadi. Bu korxonalaridagi qisqa muddatli tayyorgarlik, kasb maktablarida yoki oliy o'quv yurtlaridagi o'qish bo'lishi mumkin.

O'quv kasblar ro'yxatiga shuningdek, kasblarning tarqalganligi,17 og'ir va zararli mehnat sharoitlari bo'lgan ishlarga qarshi ko'rsatmalar, shuningdek yoshdagi cheklashla ta'sir etadi. Kasbiy ta'lim uchun o'quv kasblar ro'yxatini tanlash doimo dolzarb bo'ladi va albatta bu ro'yxat ilmiy asoslangan guruhlashga ega bo'lishi kerak hamda kam sonli bo'lishi lozim. Malakali ishchilarning tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida o'quv fanlarini guruhlash masalasi birinchi marta S.Ya.Botishev tomonidan ko'rib chiqilgan edi. Kasblarning bo'linish belgisi sifatida quyidagilar ko'rib chiqildi: 1) Mehnatning mexanizasiyalanganlik darajasi. 2) Talab etiladigan malaka darajasi va xarakteri. 3) Sarflangan jismoniy va aqliy mehnat nisbati. Kasbiy ta'lim iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyoji va tarqalganligi asosida o'quv yurtlarida mutaxassisliklarni tayyorlash uchun mo'ljallangan kasblarni tasniflashga muhtoj. Bu borada quyidagicha ish olib borilmoqda, 1987 yilda kasbiy texnologik ta'lim tizimida ishlarini rivojlantirish uchun navbatdagi kasblar ro'yxati tasdiqlangan edi. Unga ko'ra, o'quv kasblarining umumiy soni 1123 tagacha qisqartirilgan edi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda shaxs omili muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda "malaka" tushunchasi ham sezilarli o'zgardi. Ishchi

malakasiga ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikmalardan tashqari keng kasblar doirasi uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy sifatlar ham kiradi. Muhim kasbiy sifatlarga mas'uliyat, ishonchlilik, kirishimlilik, hamkorlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kiradi. Hammasi bo'lib 50 ga yaqin asosiy tasniflash ajratiladi. har bir kasbiy faoliyat odatda 5-7 muhim kasbiy sifatlarni talab etadi. O'quv kasblarini loyihalashtirishda quyidagi tamoyillar asosiy bo'lishi mumkin. Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqish texnologiyalarining o'zaro aloqalari. Shaxsning kasbiy o'zlikni anglash.

Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yo'naltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat masalalari ham nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariya-gigienik talablar kiradi.

#### XULOSA

Yuqorida tahlil qilgan fikrlarimiz kasb psixologiyasi bu o'ziga xos murakkab va doimiy inson-kasb o'rtasidagi bo'ladigan munosabatlarni o'rganib boruvchi jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Kasb psixologiyasi insonni o'z faoliyati davomida kerak bo'lgan, uni doimo qiziqtirib kelayotgan kasb yo'nalishlariga yo'llab turadi. O'sib kelayotgan yoshlarga maslahatlar berish, ularni kasbga yo'llash, kasblar haqida bilimlar berish, malakalarini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, attestatsiyalash, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishlarida ularga yordam berish kabi ko'plab amaliy ishlarni bajarib boradi.

Bulardan tashqari, kasbni insonga qo'yadigan talablari ham borki, kasb psixologiyasi bu masalalar bilan ham keng shug'ullanishi zarur bo'ladi. Bu talablar ob'ektiv bo'lib, ularni inson o'zgartira olmaydi. Kasb qo'yadigan talablar, birinchidan, kasb bilan bog'liq jarayonlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, jamiyat uchun zarur bo'lgan talablar bilan bog'liq bo'ladi. Lekin bular insonning ishtiroki va ta'siri ostida shakllangandir. Kasblarning shakllanishi va rivojlanishi texnika sohasidagi taraqqiyot va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa ko'plab kasblarning paydo bo'lishigaolib keladi.

Kasb va kasbiy psixologiya o'zining tadqiqot sohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tatbiq etib boradi. Kasb psixologiyasi inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini o'rganish orqali unga ma'lum bir kasblar haqida bilimlar va o'ziga qiziq tuyulgan kasbni egallashga yo'l-yo'riqlar berib boradi. Bu kabi ko'plab misollar, ya'ni insonni kasbga o'rgatish, kasbga xos bo'lgan xulq-atvorlarni singdirish insoniyat tarixida ko'plab uchraydi. O'sib kelayotgan yosh avlod, uning kasbni egallashi masalalari katta avlodni har doim qiziqtirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalar qatorida turadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: «Istiqlol», 1994. -26-b.
2. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. - T., 2010. -62-b.
3. Mahmud Hasaniy. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. - T.: «Fan», 2014 y. -20-b.
4. Холйигитова, Н. (2014). Инновацион технологиялар-таълим Ва тарбия жараёнларининг сифат Ва самарадорлиги омили сифатида. СоВреМеННое образоВаН^ (Узбекистан), (1), 2225.
5. Тураева, Д. Р. (2014). Факторы, определяющие индивидуальнопсихологические особеННосга личности педагогов профессионального колледжа. ^временные гуманитарные исследования, (3), 118-121
6. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.